



## GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA JAHON IQTISODIYOTI VA MINTAQAVIY IQTISODIYOTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

**Xayitova Feruza**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"*

*ilmiy - tadqiqot markazi*

*ORCID: 0009-0006-6903-7751*

*[Xayitova1994@mail.ru](mailto:Xayitova1994@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonlarining jahon iqtisodiyotiga ta'siri va mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keltirilgan. Jahon bozorida iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi, savdo va investitsiyalar oqimining kengayishi mintaqalar oldiga yangi imkoniyatlar bilan birga jiddiy raqobat muhitini ham yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyati tahlili, olib borilayotgan keng ishlar ko'lam, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi omillari bog'ligi va globallashuvning mintaqaviy raqobatbardoshlikka ta'siri yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** globalizatsiya, mamlakat, raqobatbardoshlik, global bozor, jahon bozori, iqtisod, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport, import, tashqi savdo, jahon iqtisodiyoti.

## ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И РЕГИОНАЛЬНЫХ ЭКОНОМИК В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**Хайитова Феруза**

*Научно-исследовательский центр «Научные основы  
и проблемы развития экономики Узбекистана»  
при Ташкентском государственном  
экономическом университете*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается взаимосвязь между процессами глобализации и их влиянием на мировую экономику, а также конкурентоспособностью региональных экономик. Ускорение экономических связей на мировом рынке, расширение потоков торговли и инвестиций создают для регионов новые возможности, но одновременно формируют серьезную конкурентную среду. Также в статье освещается анализ внешнеэкономической деятельности нашей страны, масштаб проводимых реформ, факторы конкурентоспособности национальной экономики и влияние глобализации на региональную конкурентоспособность.

**Ключевые слова:** глобализация, рынок страны, законность, глобальный рынок, мировой рынок, экономика, внешнеэкономические связи, экспорт, импорт, организация торговли, мировая экономика.

## THE INTERRELATION BETWEEN THE COMPETITIVENESS OF THE GLOBAL ECONOMY AND REGIONAL ECONOMIES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

**Khayitova Feruza**

*Research center "Scientific bases and issues of economic development of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article explores the relationship between globalization processes and their impact on the global economy, as well as the competitiveness of regional economies. The intensification of economic ties in the global market and the expansion of trade and investment flows present new opportunities for regions, while also creating a highly competitive environment. The article also highlights the analysis of Uzbekistan's foreign economic activity, the scope of ongoing reforms, the factors influencing national economic competitiveness, and the effect of globalization on regional competitiveness.*

**Keywords:** *globalization, country market, legality, global market, world market, economy, foreign economic relations, export, import, organization trade, world economy.*

### **Kirish.**

Globalizatsiya sharoitida jahon iqtisodiyotining izchil va barqaror rivojlanishi tobora ko'proq mintaqaviy iqtisodiyotlarning holati va ularning o'zaro integratsiyalashuv darajasiga bog'liq bo'lib bormoqda. Hozirgi davrda har bir mintaqaning iqtisodiy salohiyati, innovatsion faoliyati, infratuzilma rivoji hamda eksport-import imkoniyatlari nafaqat mahalliy taraqqiyotga, balki global iqtisodiy muvozanatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon bozorida kuchayib borayotgan raqobat, resurslar uchun kurash va texnologik ustunlik uchun intilishlar mintaqaviy iqtisodiyotlardan yanada yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni talab qilmoqda. Bu bog'liqlikni o'rganish nafaqat jahon iqtisodiyotining strategik yo'nalishlarini tahlil qilishga yordam beradi, balki har bir alohida hududning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu mavzuni chuqur tahlil qilish orqali jahon iqtisodiy tendensiyalari bilan mintaqaviy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro ta'sir va uyg'unlikni aniqlash, raqobat ustunliklarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Jahon iqtisodiyoti va mintaqaviy tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish mavzusida yozilgan adabiyotlar keng qamrovli bo'lib, ular iqtisodiyot, savdo, investitsiyalar, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish kabi turli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Amerikalik iqtisodchi Stiglitz (2002) tomonidan "Globalization and Its Discontents" tomonidan yozilgan kitob globalizatsiya jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarini tahlil qiladi. Stiglitz globalizatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rib chiqadi va uning oqibatlari haqida chuqur tahlil qilgan. Porterning (2005) "Конкуренция" nomli asarida globalizatsiya muhim iqtisodiy jarayon sifatida talqin etiladi. Porter globalizatsiyani nafaqat jahon bozorlarining ochiqligi, balki kompaniyalarning strategik raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omil sifatida ko'rsatgan. Balkind va Gromov (2021), "Конкурентоспособность региона в условиях глобализации" maqolasida globalizatsiya sharoitida hududlarning raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb strategik vazifa sifatida ko'riladi. Mualliflar ta'kidlashicha, globallashtirish iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda: xalqaro bozorlar ochilmoqda, raqobat kuchaymoqda va innovatsiyalar jadal sur'atda rivojlanmoqda. Bunday sharoitda har bir hudud o'zining iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholash, ustunliklarini aniqlash va raqobatbardosh strategiyalar ishlab chiqishi lozimligi ta'kidlab o'tishgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimi Mirsaidovning (2006) “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” o‘quv qo‘llanmasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning hozirgi zamondagi roli va mohiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari, tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish usullari, xalqaro savdo, xalqaro hududiy-iqtisodiy integratsiya va boshqa iqtisodiy masalalar keng yoritilgan. Xolbo‘taye (2019) – “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” darsligida global iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslarini, jahon bozorlarining shakllanish mexanizmlarini va globallashuv sharoitida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini atroflicha tahlil qilgan. Olimlardan Nazarova, Iminov, Xalilov, Hamidovlarning (2011) “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” o‘quv darsliklarida, jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning umumiy rivojlanish xususiyati o‘zgarib borayotgan bir davrda O‘zbekiston Respublikasi ham jahon hamjamiyatiga kirib borishi, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi hamkorliklar rivojlantirishi, xususan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini o‘rganishi, shuningdek bozor iqtisodiyotining rivojlanishidagi yutuq – kamchiliklari, rivojlanish muammolarini hal etishdagi to‘g‘ri yondashuvlar haqida ko‘plab ma‘lumotlar berilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o‘zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham eksport faoliyatini rag‘batlantirish va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirildi. Qabul qilingan qaror va farmonlar eksport infratuzilmasini mustahkamlash, eksportyorlarga moliyaviy va institutsional ko‘mak ko‘rsatish, hamda eksport jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, ushbu strategiyada eksportga oid asosiy yo‘nalishlar va rejalar belgilab berilgan. Buning natijasi o‘laroq, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi jahonning 204 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. 2023 yil statistika ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, yanvar-fevral oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetdi va bu o‘tgan yilga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 23,9 % ga oshishini ta‘minladi.

1-jadval

#### Tashqi savdo aylanmasi va balansi (mln. AQSH dollari)

|                               | 2022 yil         | 2023 yil         | O'sish sur'ati,<br>% da | Jamiga nisbatan,<br>% da |
|-------------------------------|------------------|------------------|-------------------------|--------------------------|
| <b>Tashqi savdo aylanmasi</b> |                  |                  |                         | <b>x</b>                 |
| <b>Eksport</b>                | <b>19 732,6</b>  | <b>24 426,2</b>  | <b>123,8</b>            | <b>100,0</b>             |
| tovarlar                      | 11 020,3         | 10 989,9         | 99,7                    | 45,0                     |
| xizmatlar                     | 4 456,7          | 5 179,7          | 116,2                   | 21,2                     |
| nomonetar oltin               | 4 255,6          | 8 256,6          | 194,0                   | 33,8                     |
| <b>Import</b>                 | <b>30 767,8</b>  | <b>38 141,2</b>  | <b>124,0</b>            | <b>100,0</b>             |
| tovarlar                      | 28 220,3         | 35 574,8         | 126,1                   | 93,3                     |
| xizmatlar                     | 2 547,5          | 2 566,4          | 100,7                   | 6,7                      |
| <b>Saldo</b>                  | <b>-11 035,2</b> | <b>-13 715,0</b> | <b>x</b>                | <b>x</b>                 |

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz eksport hajmi 24,4 milliard dollarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4,7 milliard dollarga oshgan. Eksport tarkibida eng katta o'sish nomonetar oltin ulushida qayd etildi – bu yo'nalishda 194 % lik o'sish kuzatildi. Xizmatlar eksporti ham ijobiy tendensiyaning saqlab qolgan. Shu bilan birga, import hajmi ham yuqori sur'atda o'sib, 38,1 milliard dollarga yetdi. Bu esa savdo balansining salbiy tafovutini 13,7 milliard dollarga yetishiga olib keldi. Bu holat O'zbekiston iqtisodiyotining xorijiy texnologiyalar, xom ashyo va tayyor mahsulotlarga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Savdo aylanmasining o'sishi O'zbekistonning xalqaro savdo maydonidagi ishtiroki kengayib borayotganini ko'rsatadi. kelgusida milliy mahsulotlar eksportini rag'batlantirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va xizmatlar eksportini rivojlantirish nafaqat tashqi savdo balansini yaxshilash, balki O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi quyidagi omillarga bog'liq: mamlakatning jahon xo'jalik aloqalaridagi ishtirok darajasi, uning jahon bozoriga nisbatan "ochiqlik" darajasi hamda xalqaro ixtisoslashuvni ta'minlaydigan zamonaviy eksport bazasining mavjudligi. Eksport sanoatini tashqi iqtisodiy kompleksning bir qismi sifatida rivojlantirish jahon amaliyotidan ko'rinib turibdiki, mamlakatning iqtisodiy ahvolini yaxshilash va uning jahon hamjamiyatiga kirishi uchun zarur shart-sharoit yaratishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakat eksport iqtisodiyoti jahon iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lganligi sababli, yangi texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, to'lov balansini yaxshilash, miqyosdagi iqtisodlarga erishish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va xalqaro raqobatda ishtirok etish uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

## 2-jadval

**Mintaqaning iqtisodiy ochiqligi uning raqobatbardosh yoki  
yo'qligini belgilovchi omil sifatida**


| № | Ijobiy                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Salbiy                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Mintaqaga jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv orqali yangi resurslar, texnologiyalar va bilimlarni jalb qilish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi, xalqaro bozordagi o'rnini mustahkamlaydi, innovatsiyalar, eksport hajmi va ishlab chiqarish samaradorligi bo'yicha yetakchilikni ta'minlaydi. | Mahalliy korxonalarning bozorda raqobatbardoshligi pasayganda, texnologiya va moliyaviy resurslar past bo'lgan kompaniyalar xorijiy kompaniyalar ta'siriga qarshi tura olmaydi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning pasayishi xavfini keltirib chiqaradi.                                  |
| 2 | Texnologiyalar oqimi va xorijiy investitsiyalarga kirish. Hududda infratuzilmani kengaytirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash va xorijiy investitsiyalar hisobidan mahalliy iqtisodiyotni yuksaltirishga zamin yaratish yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar yaratish imkonini beradi.                              | Mintaqa global iqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan sezgir bo'lib bormoqda, bu esa iqtisodiy qaramlik va noaniqlikni oshirishi mumkin.                                                                                                                                                    |
| 3 | Mahalliy korxonalarga xalqaro talab va talabchan bozorlar bilan ishlash imkonini beradi, ishlab chiqaruvchilarni mahsulot sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalardan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga undaydi.                                                                                   | Mintaqaning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xalqaro bozorda raqobat kuchayishi natijasida zaiflashishi mumkin, mahalliy sanoatning tanazzulga uchrashiga va moliyaviy yoki texnologik jihatdan orqada qolgan hududlarda ishsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. |

*Manba:* muallif tomonidan o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan.

Mamlakatda raqobatbardoshlikni oshirish, texnologik va iqtisodiy taraqqiyotni saqlab qolish uchun milliy iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Milliy iqtisodiyotlar elektron tijorat va global qiymat zanjirlarining rivojlanishi tufayli jahon bozorlarida yangi savdo imkoniyatlariga ega bo'lmoqda. Iqtisodiy barqarorlikka hududlarning jahon iqtisodiy tizimiga faol integratsiyalashuvi, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va savdo hajmini oshirish orqali erishiladi. Shu bilan birga, yashil texnologiyalar va ekologik barqarorlikni joriy etish mintaqaning xalqaro bozordagi jozibadorligini oshiradi. Jahon bozorida raqobatbardoshlik ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishga bog'liq. Iqtisodchi Porter raqobatbardoshlikni nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki strategik rivojlanish rejalari, ijtimoiy infratuzilma va mintaqaning innovatsion salohiyatidan foydalangan holda baholashni taklif qiladi. U mintaqaviy raqobatbardoshlikni to'liq tushuntirish uchun "olmos modeli" dan foydalanadi va ushbu kontseptsiyani tashkil etuvchi to'rtta asosiy komponentni aniqlaydi: omillar sharoitlari, talab sharoitlari, qaram va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar, firma strategiyasi tuzilmasi va raqobat (Porter, 2005). Xalqaro savdo, sarmoya va texnologiya oqimlariga kirish mintaqaning iqtisodiy ochiqqligini belgilaydi (2-jadval). Bunday imkoniyat mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish yoki pasaytirishning asosiy omili hisoblanadi.

Hududlar iqtisodiy ochiqlik va raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlikni samarali boshqarish uchun uzoq muddatli rejalashtirishga tayanishi kerak. Ushbu rejalashtirish resurslardan samarali foydalanish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, global raqobatdagi muvaffaqiyat ta'lim va qayta tayyorlash dasturlariga sarmoya kiritish orqali mintaqaning inson kapitalini rivojlantirishga bog'liq.

Jahon iqtisodiyotining raqobatbardosh tarmoqlarini aniqlash hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, investitsion oqimlar va xalqaro moliya bozorlarini monitoring qilish mintaqaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Resurslarni mintaqalar bo'yicha samarali taqsimlash va jahon iqtisodiyotini tahlil qilishdan foydalangan holda yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltirish mumkin. Shuningdek, tahlil xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni jalb etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda.



**1-rasm** Mintaqaning jahon iqtisodiyoti segmentlarida tutgan o'rni

*Manba:* muallif tomonidan o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan.

Global o'zgarishlarga tezda moslashish uchun mintaqalar global iqtisodiyotdagi yangi tendentsiyalar va o'zgarishlarni kuzatishi kerak. Tahlil natijalari raqobatbardosh hududlarni yaratishda barqaror rivojlanish, ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish tamoyillariga ham amal qilinayotganini ko'rsatmoqda. Shunday qilib, raqobatbardosh hududlarni yaratishning asosiy sharti jahon iqtisodiyotini chuqur tahlil qilish va ushbu tahlil natijalaridan mintaqaviy rivojlanish strategiyasida foydalanish hisoblanadi.

3-jadval

## Global bozor ta'siri

| № | Nomi                                          | Ma'lumot                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|---|-----------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Raqobatbardoshlik                             | Ko'proq diversifikatsiyalangan iqtisodiyot barqarorroq bo'lib, o'sishda davom etadi. Mintaqaning milliy va xalqaro bozorlarda o'z mavqeini saqlab qolish va mustahkamlash qobiliyati uning iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy salohiyatiga bog'liq.                                                                                                                                                           |
| 2 | Texnologik taraqqiyot                         | Bu mintaqaviy raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi viloyat iqtisodiyoti samaradorligini oshiradi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi, jahon bozori talablariga moslashishga xizmat qiladi                                                                                             |
| 3 | Inson resurslari sifati                       | Malakali ishchi kuchi va yaxshi ta'lim tizimi jahon bozori talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan innovatsiyalarni osonlashtiradi.<br>Inson kapitali rivojlangan hududlar mintaqa iqtisodiyotini yaxshilaydi va xalqaro investorlarni jalb qiladi.                                                                                                                                                        |
| 4 | Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha mutaxassislik | Xom ashyo eksportiga bog'liq bo'lgan hududlar jahon bozorlarida narxlarning o'zgarishiga duchor bo'ladi va global inqirozlar natijasida zarar ko'rishi mumkin. Shunday qilib, hududlar o'z iqtisodiyotlarini diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga intiladi. Rivojlangan texnologik infratuzilmaga ega bo'lgan hududlar raqobatbardoshlik bo'yicha sezilarli ustunlikka ega bo'ladi. |
| 5 | Xalqaro hamkorlik                             | Mintaqada raqobatbardoshlikni oshirishning yana bir muhim vositasi xalqaro integratsiya va savdo aloqalaridir. Global iqtisodiy tizimda faol ishtirok etish orqali hududlar sarmoya va texnologiya oqimidan foyda oladi. Hududlar savdoni rivojlantirish va xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi mumkin.                                                           |
| 6 | Ekologik barqarorlik                          | Ekologik barqarorlik mintaqaning raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy komponentlardan biri hisoblanadi. Yashil texnologiyalarni joriy etish va atrof-muhitni muhofaza qilish jahon bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatib, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratadi.                                                                                                                                            |

**Manba:** muallif tomonidan o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan.

Raqobatbardosh hududlarni yaratish uchun jahon iqtisodiyotini o'rganish zarur. Hozirgi iqtisodiy sharoitda mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirishga global iqtisodiy tendentsiyalarni tushunish va moslashtirish orqali erishiladi. Muayyan mintaqalarning o'ziga xos ustuvorliklarini jahon iqtisodiyotini o'rganish orqali aniqlash mumkin. Hududlarning eksport salohiyatini oshirish uchun jahon bozorlaridagi talab va taklifning o'zgarishini

o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ular milliy iqtisodiyotning asosini tashkil etadi va jahon bozorlarini hamda global ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi (1-rasm)

Ijtimoiy rivojlanish muammolarini hal qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mintaqaviy iqtisodiy klasterlar hamda xalqaro darajada raqobatbardosh bo'lgan tarmoqlarning rivojlanishiga olib keladi.

Bu esa jahon iqtisodiyotining umumiy barqarorligi va o'sishiga hissa qo'shadi. Hududlar o'z resurslarini safarbar qilgan holda global chaqiriqlarga javoban xalqaro hamkorlik orqali jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga o'z ulushini qo'shadi. Demak, mintaqaviy iqtisodiyotlar nafaqat jahon iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, balki ushbu iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.

Globallashuvning mintaqaviy raqobatbardoshlikka ta'siri natijasida ijtimoiy tengsizlik kuchayib bormoqda. Raqobatga ega bo'lmagan hududlar iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini yo'qotadi, chunki ular global bozor jarayonlaridan chetda qoladilar. Shu sababli iqtisodiy va mintaqaviy tengsizliklar ortib bormoqda. Bauman globallashuvni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ziddiyatli jarayon sifatida ko'radi, chunki u ba'zi mamlakatlarning rivojlanishiga imkon yaratadi, ammo boshqa mamlakatlar uchun muammolar va qaramlikni keltirib chiqaradi. Rivojlangan mintaqalar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tufayli innovatsiyalarni joriy etishda ustunlikka ega bo'lsa, rivojlanayotgan mintaqalar cheklangan resurslar yoki infratuzilmaning yo'qligi tufayli bu imkoniyatlardan foydalana olmaydi. Bu esa texnologik tengsizlikni kuchaytirib, raqobatbardosh bo'lmagan mintaqalarni global bozor chekkasiga surib qo'yadi. Mintaqalarning global bozor sharoitlariga moslashish qobiliyati va o'z iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishi ularning jahon iqtisodiyotidagi raqobatbardoshligini belgilaydi. Bu jarayonga hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi, texnologik taraqqiyot, infratuzilma va inson kapitali sifati ta'sir ko'rsatmoqda (3-jadval).

Ekologik barqarorlikni ta'minlay olgan mintaqalar investorlarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu g'oya mintaqaning mavjud resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va iqtisodiy rivojlanishga erishish bo'yicha strategik salohiyatini ifodalaydi.

### **Xulosa va takliflar.**

Globalizatsiya zamonaviy jahon iqtisodiy tizimining ajralmas qismiga aylangan. U mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirib, kapital, texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar harakatining tezlashishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligi nafaqat mahalliy omillarga, balki ularning jahon bozoriga qanchalik muvaffaqiyatli integratsiyalashganiga ham bog'liq bo'lib qoldi. Shunday qilib, zamonaviy globallashuv jarayonlari mintaqalar taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologik yutuqlar, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi har bir mintaqaga uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ayniqsa, eksport salohiyatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlari kuchaymoqda. Mintaqalarning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi orqali ular o'zining iqtisodiy, texnologik va inson kapitalini rivojlantirishga intilmoqda. Shu bilan bir qatorda, barqaror ijtimoiy rivojlanish, ekologik muvozanatni saqlash va zamonaviy infratuzilmalarni yaratish orqali mintaqalar jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Ammo bu jarayonda muvaffaqiyatga erishish uchun mintaqalar global tendensiyalarni chuqur tahlil qilishi, mavjud resurslardan samarali foydalanishi, inson kapitalini rivojlantirishga e'tibor qaratishi va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishi zarur. Shuningdek, global o'zgarishlarga moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlar hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu asnda aytish mumkinki, globallashuv mintaqalar uchun nafaqat chaqiriq, balki katta imkoniyatdir. Eng muhimi, bu imkoniyatlardan oqilona

foydalanish orqali iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish va xalqaro maydonda raqobatbardosh mintaqalarni shakllantirish mumkin.

Globalizatsiya sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotlar jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishi uchun o'z ixtisoslashuvini aniqlashi, innovatsion rivojlanishni yo'lga qo'yishi, xorijiy investitsiyalar va savdo aloqalarini kengaytirishi lozim. Kadrlar salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Mintaqalar global iqtisodiy tizimga faol integratsiyalashgan taqdirda, ularning iqtisodiy o'sishi tezlashadi va raqobatbardoshlik darajasi ortadi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

Balkind V.S., Gromov I.V., (2021) Конкурентоспособность региона в условиях глобализации.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son.

Joseph E. Stiglitz (2002) "Globalization and Its Discontents".

lex.uz. (n.d.). PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/-5841063>.

Mirsaidov M.S. (2006) "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar". O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD MOLIYA".

Nazarova G.G', va boshq. (2011) "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar". Darslik – Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat axborotnoma (2023) <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2>

Xolbo'tayev S. (2019) Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot.

Портер М. (2005) Конкуренция. – М.: Вильямс.